

GEOLOGIYA TERMINLARINI TARJIMA QILISHDA GENERALIZATSIYA TRANSFORMATSIYASINING ZARURATI

L.A. Rixsiyeva

O'zDJTU

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga geologik terminlar va ilmiy matnlarni tarjima qilish jarayonida generalizatsiya (umumlashtirish) transformatsiyasining qo'llanishi, uning lingvistik asoslari va amaliy misollari tahlil qilinadi. Tadqiqot geologiya sohasiga oid terminologiya xususiyatlari, tarjima jarayonidagi semantik moslashuv ehtiyojlari hamda generalizatsiya transformatsiyasining funksional-uslubiy ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: generalizatsiya, tarjima transformatsiyalari, geologik terminlar, semantik moslashuv, geomorfologiya, terminologiya.

Abstract: This article analyzes the application of generalization transformation in the process of translating geological terms and scientific texts from English into Uzbek, its linguistic foundations, and practical examples. The research examines the characteristics of terminology in the field of geology, the requirements for semantic adaptation in the translation process, and the functional and stylistic significance of generalization transformation.

Keywords: generalization, translation transformations, geological terms, semantic adaptation, geomorphology, terminology.

Аннотация: В данной статье анализируется применение трансформации обобщения при переводе геологических терминов и научных текстов с английского языка на узбекский, её лингвистические основы и практические примеры. В исследовании рассматриваются особенности терминологии в области геологии, требования к семантической адаптации в процессе перевода, а также функционально-стилистическое значение трансформации обобщения.

***Ключевые слова:** генерализация, переводческие трансформации, геологические термины, семантическая адаптация, геоморфология, терминология.*

Umumiy terminologiya nazariyasining predmeti maxsus soʻzlarning yasalihi va qoʻllanilishini oʻrganish, ular orqali insoniyat egallagan bilimlarni yetkazish, mavjud terminologik tizimlarni takomillashtirish, yangi terminlarni izlashni oʻz ichiga oladi. L.A.Rixsiyeva taʼkidlashicha, terminlarning tarjima qilishda optimal usullarini qoʻllash terminologiya tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. Uning fikriga koʻra, tizimdan tashqarida termin oʻzining oʻziga xos xususiyatlarini yoʻqotadi va lingvistik tizimda (terminologik jihatdan emas) oʻzining milliy va madaniy mansubligini, shuningdek, koʻp maʼnolilik kabi lingvistik kategoriyalarni ifodalashi mumkin va tarjima jarayonida leksik transformatsiyalarni oʻz orinda qoʻllash joizdir [3, 238-242].

Oʻzbek olimlari I.Gʻafurov, O.Moʻminov, N.Qambarovlarning taʼkidlashicha, tarjima jarayonida leksik transformatsiyalarga murojaat etishga bir qancha omillar sabab boʻladi. Ularning fikriga koʻra, asliyat tilidan soʻzma-soʻz tarjima qilinganda noqulay, gʻaliz tuzilmalarni paydo boʻlishi tarjima sifatini pasaytirishi mumkin. Shu bois tarjimon matnni qabul qiluvchi tilning adabiy meʼyorlariga mos, oson anglashiladigan shaklda yetkazish maqsadida leksik transformatsiyalardan foydalanishga majbur boʻladi [1,109]. Geologiya fani yuqori terminologik zichlikka ega soha boʻlib, ingliz tilida qoʻllanadigan koʻplab terminlarning oʻzbek tilida toʻlaqonli ekvivalenti mavjud emas yoki normativlashtirilmagan. Shu sababli tarjima jarayonida koʻpincha semantik transformatsiyalar, xususan generalizatsiya qoʻllanadi. Generalizatsiya transformatsiyasi aniq, tor maʼnoli terminlarni maqsad tilida kengroq, umumiyroq tushuncha yordamida ifodalash imkonini beradi. Ushbu metod geologik matnlar tarjimasida maʼno aniqligi, tushunarlilik va funksional-uslubiy moslikni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot komparativ-lingvistik tahlil, terminologik muvofiqlashtirish, kontekstual semantik monitoring hamda tarjimaviy transformatsiyalarni solishtirma oʻrganish usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Material sifatida ingliz tilidagi geomorfologiya, struktur

geologiya va umumiy geologiya bo'yicha ilmiy matnlar hamda ularning o'zbekcha tarjimalari tanlab olindi.

Generalizatsiya – bu manba tilidagi konkret, tor ixtisoslashgan terminning maqsad tilida kengroq semantik doiraga ega bo'lgan leksema orqali ifodalanishidir. Bu transformatsiya quyidagi lingvistik omillar bilan belgilanadi: 1. *Terminologik bo'shliq – maqsad tilida to'liq terminologik ekvivalentning yo'qligi*; 2. *Ilmiy-ommabop uslubga moslash – murakkab terminlarni umumiyroq tushunchalar bilan yoritish zarurati*; 3. *Kontekstning semantik talablari – tor terminning umumiy jarayon yoki hodisa sifatida talqin qilinishi*. 4. *O'quvchi auditoriyasi – darslik, sharh yoki ilmiy-ommabop matnlarda keng tushunchalardan foydalanish zarurati*. Shu erda yana bir lingvistik omillardan birini qo'shimcha tarzida kiritish joizdir. M.Yu. Ilyushkina fikriga ko'ra, tarjima jarayonida generalizatsiya (umumlashtirish) transformatsiyasidan foydalanishning asosiy sababi shundaki, manba tilida berilgan predmetning aniq nomi tarjima tilidagi o'quvchi uchun notanish yoki mazmunsiz bo'lib ko'ringan hollarda, shuningdek ushbu nomni to'liq shaklda berish tarjima tilining me'yorlariga mos kelmaganda, ma'noni stilistik jihatdan moslashtirilgan, umumiyroq ifoda orqali yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi [2,48].

Ingliz tilidagi geologik terminlar o'zbek tiliga tarjimasida generalizatsiya ishlatilishi bo'yicha quyidagi misollarni keltiramiz:

1. **Outwash plain** → *yuvilma jinslar yoyilgan hudud*. Termin geomorfologik jihatdan muayyan birlik bo'lsa-da, o'zbek tilida kengroq tushuncha bilan ifodalangan.
2. **Cross-bedding** → *qatlamlanish belgilari*. Aniq struktur-geologik termin umumiyroq semantik birlik bilan berilgan.
3. **Minor faults** → *mayda deformatsiyalar*. **“fault”** geologik uzilish ma'nosini anglatadi, ammo kontekstda umumlashtirilgan.
4. **Talus** → *qoldiq material*. Muayyan geomorfologik shakl nomi umumiy termin bilan almashtirilgan.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, generalizatsiya transformatsiyasi geologik terminologiya tarjimasida keng qo'llaniladi va u ko'pincha semantik moslashuv mexanizmi sifatida

namoyon bo‘ladi. Bu ayniqsa ingliz tilida maxsus nomlangan geomorfologik shakllar va jarayonlarni o‘zbek tilida ifodalashda uchraydi. O‘zbek geologik terminologiyasi tizimi hali to‘liq standartlashtirilmaganligi sababli, tarjimon kontekstga mos ravishda terminlarni umumlashtirishga qo‘shilgan semantik yukni moslashtiradi. Shuningdek, ilmiy-ommabop matnlarda o‘quvchi auditoriyasiga moslashish maqsadida murakkab terminlar umumiyroq so‘zlar orqali berilishi kuzatildi. Bu jarayon ma’no yo‘qolishiga olib kelmaydi, aksincha matnning tushunarligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, generalizatsiya transformatsiyasi geologik terminlar tarjimasida muhim lingvistik vosita bo‘lib, u terminologik bo‘shliqni to‘ldirish, matnning funksional-uslubiy talablari va o‘quvchi auditoriyasiga moslashishni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, generalizatsiya transformatsiyasi geologiya matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda semantik aniqlikni saqlagan holda matnni soddalashtirish va tizimlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida geologiya terminologiyasining izchil normativlashuvi generalizatsiya darajasini kamaytirishi, shuningdek terminologik ekvivalentlarning takomillashishiga yordam berishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – B. 109.
2. Илюшкина М.Ю. Теория перевода: Основные понятия и проблемы. – Екатеринбург: Уральский федеральный университет, 2015. – С. 48.
3. Rikhsieva L. A. Application Of Systematic Approach To The Analysis Of Terminological Systems. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021 , 3 (06) 238-242.